



Promote
Dialogue.
Prevent
Conflict.

Markaz haqida

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun Preventiv Diplomatiya bo'yicha Mintaqaviy Markazi (UNRCCA) Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus siyosiy vakolatxonasi. Ushbu markaz Turkmanistonning Ashxobod shahrida joylashgan bo'lib, Nur-Sulton (Qozog'iston), Bishkek (Qirg'iziston), Dushanbe (Tojikiston) va Toshkent (O'zbekiston) shaharlarida o'z idoraliriga ega.



Markaz 2007 yil dekabr oyida besh mamlakat (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston) hukumatlari tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu taklifni ilgari surishda hukumatlar Markaziy Osiyo duch kelinayotgan bir qator tahdidlarni, jumladan terrorizm va ekstremizm, giyohvand moddalar savdosi, uyushgan jinoyatchilik va ekologiya bilan yomonlashib borishi bilan

bog'liq bo'lgan muammolarni hisobga oldilar.

Missiya bayonoti

UNRCCAning maqsadi Markaziy Osiyo hukumatlariga nizolarning oldini olish bo'yicha o'z salohiyatlarini rivojlantirishda muloqot, sheriklik va mintaqaviy hamkorlikni takomillashtirish orqali yordam berish va qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Shuningdek UNRCCA Markaziy Osiyo mamlakatlarining yaqin qo'shnisi deb bilgan holda Afg'oniston Islom Respublikasi hukumati bilan ham hamkorlik qiladi.



UNRCCA faoliyati

UNRCCA o'zining 2018-2020 yillarga mo'ljallangan joriy uch yillik Harakat Rejasi asosida quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ish olib bormoqda:

- Markaziy Osiyo davlatlarini terrorizm va ekstremizmga qarshi olib borayotgan kurashlarida qo'llab-quvvatlash;
- Markaziy Osiyo mamlakatlariga transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanishlarida yordam berish;
- Yosh diplomatlarga va boshqa davlat xodimlariga nizolarni oldini olish va preventiv diplomatiya bo'yicha o'quv-mashg'ulotlar o'tkazish.



Mintaqadagi dolzarb muammolarni muhokama qilish va ularni xal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni kelishib olish maqsadida UNRCCA yiliga bir marta Markaziy Osiyo davlatlari Tashqi ishlar vazirlari o'rinbosarlarining yig'ilishini tashkillashtiradi.

UNRCCA Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa agentliklari, shuningdek Evropa Ittifoqi, YeXHT, MDH va ShHT kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

UNRCCA rahbari



Markazni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Natalya Gherman xonim rahbarlik qilmoqda.

UNRCCA Birlashgan Millatlar Tashkilotining preventiv diplomatiya bo'yicha faoliyat olib boruvchi ilk agentligi bo'lib, aynan preventiv diplomatiya nizo yuzaga kelishidan oldin uning oldini olish borasida ideal yondoshuv hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun Preventiv Diplomatiya bo'yicha Mintaqaviy Markazi (UNRCCA)




Markaziy Osiyo va Afg'oniston aholisining 50% dan ortig'ini 29 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ular mintaqada tinchlik va taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ulkan salohiyatga ega. Ammo bu salohiyatdan deyarli foydalanilmayapti. Mazkur mintaqaning turli mamlakatlaridagi yoshlarning aksariyati bir xil muammolar, qo'rquvlar (xavotirlar), umidlar va orzularga ega. Lekin o'zaro muloqotning yo'lga qo'yilmaganligi hamda birlari to'g'rilarida ma'lumotga ega bo'lmaganliklari ularni ajratib turadi va hatto ularning o'rtasida

ziddiyatlarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Shu sababli, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun Preventiv Diplomatiya bo'yicha Mintaqaviy Markazi (UNRCCA) kelajak avlodga sarmoya yo'naltirmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad esa ularga o'z dunyoqarashlarini kengaytirishlari va noto'g'ri tushunchalar, turli xil asossiz taxminlar va stereotiplarga qarshi chiqishlarida yordam berishdan iborat. Yoshlar o'rtasidagi o'zaro mu-

loqotning kuchayishi to'siqlarni bartaraf etishga hamda yoshlarning dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beradi va mintaqaning chegaradosh hududlarida preventiv diplomatiya madaniyatini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, UNRCCA mintaqadagi yoshlar bilan ish olib borish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi tomonidan Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiyani ilgari surish bo'yicha o'z zimmasiga yuklangan vazifani bajarish uchun muhim ahamiyatga ega deb biladi. 2019 yil 24 yanvarda Nyu-Yorkda Markaziy Osiyo mavzusida bo'lib o'tgan maslahatlashuv yig'ilishlarida Xavfsizlik Kengashining barcha a'zolari UNRCCAning yoshlar bilan ishlash bo'yicha harakatlarni kuchaytirish borasidagi sa'y-harakatlarini olqishladilar.



UNRCCAga xos bo'lgan yondashuvni qo'llagan holda mintaqadagi 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun 3 ta o'quv seminarini o'tkazadi. Ularda quyidagi hududlardan yoshlar ishtirok etadilar: Qozog'istonning Jambil viloyati va Qirg'izistonning Talas viloyati yoshlari (Qozog'istonning Taraz shahrida,); Tojikistonning Tog'li Badaxshon Avtonom Viloyati va Afg'onistonning Badaxshon viloyati yoshlari (Tojikistonning Xorog shahrida); O'zbekistonning Buxoro viloyati va Turkmanistonning Lebap viloyati yoshlari (Turkmanistonning Turkmanobod shahrida).

Ishtirokchilar madaniyatlararo muloqot va tushunish, yetakchilik va nizolarga barham berish kabi mavzular bo'yicha ularning kundalik hayotlariga mos ravishda ishlab chiqilgan amaliy mashg'ulotlarda qatnashadilar. Shuningdek, ishtirokchilarga chegaralarning har ikkala tarafidagi xalqlar o'rtasida madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan o'z loyihalarini ishlab chiqish imkoniyati beriladi. Yoshlar yetakchiligida amalga oshirilgan eng yaxshi loyihalar yil oxirida yoshlarning o'zlari tomonidan yuqori darajadagi tadbirda taqdim etiladi. Ayni vaqtda, ushbu dastlabki harakatlar bu boradagi faoliyatning boshlanishi xolos.

UNRCCA tinchliksevarlik madaniyatining rivojlanishiga ko'maklashishda bu yilgi tadbirlar bilan cheklanib qo'lmaslik uchun yoshlar bilan va ularning o'rtasida keng qamrovli va davomiy muloqot maydonini yaratishni maqsad qilib qo'ygan. Shuningdek, mintqa yoshlari Markazning yuqori darajadagi hukumat vakillari bilan muntazam ravishda olib boriluvchi faoliyatlarida qatnashish hamda eng yuqori darajadagi qaror qabul qiluvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda o'z tengdoshlarining ehtiyojlari, g'oyalari va intilishlari xususida so'zlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tarzda UNRCCA yoshlarga o'zlarining kelajagi hamda o'z hamjamiyatlarining istiqboliga katta hissa qo'shishlari uchun imkoniyat berishga umid qilmoqda. UNRCCA tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bunday muloqotdan foydalanar ekanlar, Markaziy Osiyo va Afg'oniston mintaqasidagi davlatlar hukumatlari o'z dasturlarida yosh avlodning intilishlari va g'oyalariga yanada yaxshiroq e'tibor berishga qodir bo'ladilar.

